

“KVILLING SAN’ATI”

Mamatova F.I.

Termiz davlat pedagogika instituti Texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Turdiyeva Sh.E.

Termiz davlat pedagogika instituti texnologik ta'lim yo'nalishi ta'labasi

Annotatsiya. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi “Boshlang'ich sinflarda kvilling san'atini” o'qitishda o'quvchilarda qo'l animatsion harakatlarini rivojlantirish o'quvchilarning diqqatlilikva sezgirlik faoliyatini oshiradi.

Kalit so'zlar: Kreativlik ,innovatsiya, fan, ta'lim, tarbiya, texnologiya,o'qitish, pedagogik jara-yon, animatsion harakatlar, san'at,mahorat, ko'nikma va malaka.

Kvilling san'ati inglizchadan olingan bo'lib “Qush pati yoki Qirqimli qog'oz degan ma'noni anglatadi.Kvilling san'ati rangli qog'ozlardan ingichka qilib qirqilgan shakl va spiralsimimon aylantirilishidan hajmli shakl yasash hisoblanadi.Kvilling oddiyligi va jilodorligi bo'lgani sababli uning ijodiga yoshlar va yoshi kattalarni ham qiziqishi unda sevib ishlashi va turlicha narsalar yasashi va juda muhim bo'lgan estetika va didni shallantiradi. Kvilling bu juda qiziqarli mashg'ulot bo'lib rasmlarda tabiat manzaralarini ,gullar,hayvonlar qushlar portretlarini rangli qog'oz-lardan har xil shakllar yaratish va ijodiy qiziqish uyg'otadi .

Ushbu turdagi kvilling asosan juda qiziqarli va foydali bu soha oddiy va vaqt sarflashdan tashqari hech qanday xarajatlarni ta'lab qilmaydi. Kvilling qiziqarli va foydali bolalarning,o'quvchilarning sevimli mashg'uloti. O'quvchilar va yoshlarni kvilling san'ati nafisligi bilan o'ziga jalb qiladigan hunar turi sanaladi. Kvilling bolalarda g'oya va kreativlikni rivojlantirishda va turlicha qobilyatlarni mukammal darajada rivojlantiradi. Kvilling cheksiz fantaziya va turlicha naqshlar kompozitsiyalarni ishlash uchun oddiy va arzon vositalar talab etiladi. Har xil rangdagio'rash uchun ignalar qog'ozni mustahkam qilib joylashtirishga ishlatiladigan yelimlar ishlatiladi. Har hil shakllarni aniq bajarishda shablon va chizg'ich yordamida xar xil chizma va shakl olinadi. Kvillingda har xil shakllar yaratish uchun masalan tomchi bir-biriga bog'lash ya'niy o'lchamli qog'ozlarni turlicha ignalarga o'rab undan burchak hosil qilib olinadi.

Kvillingdan bolalar ko'plab kompozitsiyalarni qiziqish va e'tibor bilan yasaydi.Kvilling san'atining afzalligi shundaki ijodiy qobilyatni va ijodiy g'oyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Moliyaviy jihatdan ham kvilling san'atini rivojlantirish ancha qulay hisoblanadi.Moliyaviy jihatdan ham kvilling san'atini rivojlantirish ancha qulay hisoblanadi.Qog'ozdan asbob uskuna va jihozlar arzonligi

ijodiy yosh qiziquvchilar uchun keng ko'lamdagi buyumlar dizaynni yaratishda keng imkoniyatlarni ochadi. Masalan dekoratsionniy sovg'a qutichalarini yaratish, taklifnomalarda albom bezaklarida kop qo'llaniladi. Kvillingda hozirgi kunda maktab o'quvchilarini 1-4 sinf o'quvchilari o'rtasida turlicha tanlovlar va to'garaklar o'tkaziladi. Kvilling san'ati asosan dekorativ elementlar yaratishda, masalan, kartalar, ramkalar, guroqlar, va boshqa geometrik shakllarda keng qo'llaniladi. Kvillingning asosiy asbobi - o'ralgan qog'ozni joylashtirish va shakllantirish uchun ishlatiladigan maxsus vosita. U juda mayda va aniq ishlashni talab qiladi, bu esa san'atni o'zgacha va chiroyli qiladi.

Fodalanilgan adabiyotlar:

1. Texnologiya ta'limini rivojlantirish strategiyalari moduli bo'yicha O'quv uslubiy majmua. Toshkent-2021.
2. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". T.: 2008. - 128 b. March, 2022.
3. Xoliqov A "Pedagogik mahorat" - Toshkent: Iqtisod - moliya, 2010 - yil,
4. P. Magzumov. O'quvchilarning mehnatga tayyorgarlik bo'yicha bilim va ko'nikmalari sifati. T. 1994y.
5. 1-4 sinf o'quv uslubiy tavsiya kitobi. "O'qituvchi" nashriyoti 2017 yil. KREA.
6. O'.O. Tohirov, D.S. Mirahmedova, Z.S. Shamsiyeva.